

OGAHIYNING “USTINA” RADIFLI G‘AZALI VA UNDAGI SHE’RIY  
SAN’ATLAR

**Nargiza Hamzayevna Hakimova,**  
Toskent davlat sharqshunoslik universiteti  
Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi I-  
bosqich talabasi  
E-mail: [nargiza\\_hakimova10@gmail.com](mailto:nargiza_hakimova10@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Dilfuza Zoidovna Shakirova**  
E-mail: [dilfuzashakirova025@gmail.com](mailto:dilfuzashakirova025@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ogahiy hayoti va ijodiga bo‘lgan e‘tibor haqida to‘xtalinadi. Uning “Ustina” radifli g‘azali shoir ijodida katta o‘rin egallashi ta’kidlanadi. G‘azaldagi she’riy san’at va o‘xshatishlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar.** G‘azal, she’riy san’atlar, o‘xshatish, matla, maqta, arab harflari, tansub.

**Annotation.** Today, attention to Agahi’s life and work is growing every day. “Ustina” is a great gazelle in the poet’s work. A very important task is to analyze the poetic art and comparisons in the ghazal, to understand what the poet wants to express through it.

**Keywords.** Ghazal, poetic art, comparison, matla, Arabic letters, tanosub.

**Аннотация.** Сегодня внимание к жизни и творчеству Агахи возрастает с каждым днем. «Устина» – великая газель в творчестве поэта. Очень важная задача — проанализировать поэтическое искусство и сравнения в газели, понять, что хочет через нее выразить поэт.

**Ключевые слова.** Газель, поэтическое искусство, сравнение, матла, арабские буквы, тансуб.

**Kirish.** Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy barakali ijod qilgan sa’natkor sifatida Navoiyga qiyoslanadi. Ulug‘ o‘zbek shoiri, tarixnavis, tarjima maktabining asoschisi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida tug‘ilgan. Sharqning xilma-xil she’riy shakllaridan to‘liq foydalangani holda ularda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri bilan bog‘liq mavzularni haqqoniy aks ettirdi.<sup>1</sup> Lekin shoir she’riyatining aksariyat qismi ishqiy mavzudadir. Ogahiy lirikasida ishq-muhabbat yetakchi motivlardan biridir. Bunga yaqqol misol sifatida “Ustina” radifli g‘azalini olishimiz mumkin.

G‘azal 9 baytdan iborat bo‘lib har bir bandida bir necha she’riy san’at va qiyoslashlardan foydalanilgan, har bir baytida “ustina” so‘zi radif sifatida takrorlanadi.

<sup>1</sup> Xayrullayevna, U. S. (2022). OGAHIY LIRIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. IJODKOR O‘QITUVCHI, 2(19), 643-648.

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

## Asosiy qism.

Ushbu g‘azal ishqiy sarguzasht ruhida yozilgan bo‘lib yor ta‘rifi bilan boshlanadi:

Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina

Qatlim uchun nas keltirar nun eltibon sod ustina.

Ya‘ni, shoir uchun yor bevafo. Arab alifbosidagi “nun” va “sod” harflari shakli ko‘z va qoshga ishora qilinib, biri ikkinchisi ustiga kelib shoir uchun o‘lim hukmini o‘qimoqda. Bu yerda arab harflari orqali kitobat san‘ati yuzaga kelgan. Shuningdek aynan shu harflardan foydalanishning asosiy sababi shakl jihatdan ko‘z va qoshga o‘xshashidir. Shuningdek “nun” va “sod” harflari birgalikda “nas” ya‘ni, qatil so‘zini hosil qiladi.

Qilg‘il tomosho qomati zebosi birla orazin,

Gar ko‘rmasang gul bo‘lg‘onin payvandi shamshod ustina.

Ushbu baytda yor qaddi-qomati ta‘riflanmoqda. Ya‘ni yor qomati shamshod daraxti kabi tikligi, yuzi esa go‘zalligi xuddi nozik gulni shamshod daraxtiga payvand qilinganiga o‘shatilmoqda. Bu esa tanosub san‘ati orqali yuzaga kelmoqda.

Noz-u, ado-u ga‘amzasi qasdim qilurlar dam-badam

Oh buncha ofatmi bolur bir odamizot ustina.

Baytda yorning noz, ado, g‘amzasi lirik qahramonning joniga ketma-ket qasd qilmoqda va buning natijasida oshiq “vah” deb yuboradi. Noz, ado, g‘amza so‘zlari orqali tanosub san‘ati yuzaga kelgan bo‘lsa, oshiqning qiynoqlarga chiday olmay vah deyishi mubolag‘a san‘atini yuzaga keltirgan. Tajohulu orif san‘ati shoirning muddaosini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilgan<sup>2</sup>.

Man xastag‘a jon asramoq yemdi erur dushvorkim,

Qotil ko‘zi bedod yetarhar lahza bedod ustina.

Keyingi baytda, ishqdan xasta bo‘lgan oshiqning jon asrashining dushvorligini, chunki “qotil ko‘zi bedod” (ma‘shuqa) dan har lahza “bedod” (jabr ustiga jabr) etayotganligini ta‘kidlaydi<sup>3</sup>.

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko‘ngul shomu sahar,

Bulbuldek aylar yuz navo ming nav‘i faryod ustina.

Ushbu baytda, oshiqning gul yuzli yorga bo‘lgan sevgisidan, shomdan sahargacha iztirob chekadi. Baytda shom va sahar so‘zlari orqali tazod she‘riy san‘ati yuzaga keladi.

<sup>2</sup> Gulsara, Y., & Venera, T. (2023). "USTINA" RADIFLI G‘AZALI TAHLILI. *OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNBIYE IDEI V MIRE*, 15(2), 52-54.

<sup>3</sup> Qo‘shnazarova, M. (2023). OGAHIY-SO‘Z USTASI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(28), 334-337.

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Boshimg‘a yoqqan g‘am toshin mingdin biricha bo‘lmag‘ay,  
Gardun agar ming Besutun yog‘dursa Farhod ustina.

Baytda mubolag‘a san‘atidan mahorat bilan foydalanilganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek, Farhod va Behustun orqali talmeh she‘riy san‘ati yuzaga kelmoqda.

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yamonu yaxshini  
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.

Navbatdagi baytda shohga murojaat qilib, karam aylar chog‘ida hammani – yaxshi yomonni teng tutishini so‘rab, tazod san‘atini qo‘llaydi. O‘z fikrlarini tamsil –hayotiy dalillash asosida ifodalaydi. Ya‘ni, mehr-quyosh nuri vayronu obod ustiga teng tushadi. Bunda mehr so‘zini qo‘llash orqali iyhom san‘ati yaratildi. Shunday ekan, shoh ham barchaga teng karam ko‘rsatmog‘i lozimligini uqtiradi<sup>4</sup>. Shuningdek, “ey, shah” birikmasi orqali nido san‘ati yuzaga kelmoqda.

Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil,  
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Bu baytda inson zotiga qaratilgan, hech qachon eskirmaydigan buyuk saboq mujassam. Unda shoir olamning o‘tkinchiligini eslatish orqali, insoniyatni ezgulik bilan yashashga, umrning har bir kunini g‘animat bilishga da‘vat etadi. Bu esa g‘azalning umumbashariy ahamiyatini ko‘rsatadi. Sulaymon payg‘ambarni eslatib o‘tish orqali talmeh san‘ati yuzaga keladi.

Ne jur‘at ila Ogahiy ochg‘ay og‘iz so‘z dergakim,  
Yuz xayli g‘am qilmish hujum ul zori noshod ustina

Qanday jur‘at ila ochadi Ogahiy so‘z, yuz g‘am qilmish humum noshod ustina. Ogahiy hayotiy tahdidlarga sabab bo‘lishi mumkinligiga qaramasdan, haqiqiy she‘r va shoir shuuridagi ulkan odamiylik burchini bajarishni vazifasi deb bildi.<sup>5</sup>

**Xulosa.** Muhammad Rizo Ogahiyning “Ustina” radifli g‘azali shoir ijodining shoh asarlaridan biri. Shoir ushbu g‘azalda oshiqning mashuqaga yetishishdagi kechgan qiyinchiliklarini oshkor bayon etgan. Oshiqning nolasi va ma‘shuqa ta‘rifi ta‘sirliroq bo‘lishi uchun shoir har bir baytda she‘riy san‘at va o‘xshatishlardan mahorat bilan foydalangan. Har bir baytda yorning ichki va tashqi go‘zalligi yanada go‘zalroq aks ettirilgan. Ogahiy ijodiga, g‘azal-u tariziy asarlariga bo‘lgan e‘tiborning kundan kunga oshib borishi bejizga emasligining bu yaqqol misolidir.

<sup>4</sup> Qo‘shnazarova, M. (2023). OGAHIY-SO‘Z USTASI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(28), 334-337.

<sup>5</sup> Gulsara, Y., & Venera, T. (2023). "USTINA" RADIFLI G‘AZALI TAHLILI. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNIE IDEI V MIRE, 15(2), 52-54.

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulsara, Y., & Venera, T. (2023). " USTINA" RADIFLI G‘AZALI TAHLILI. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNĖIE IDEI V MIRE, 15(2), 52-54.
2. Qo‘shnazarova, M. (2023). OGAHIY-SO ‘Z USTASI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(28), 334-337.
3. qizi Fayzullayeva, M. O. (2023). UMUMIY O ‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA MUHAMMADRIZO OGAHIY HAYOTI VA IJODINI O ‘QITISHNING MAVJUD HOLATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 642-645.